

ISLOHOTLARIMIZNING OSTONASI BO‘LGAN HAR BIR MAHALLAGA YANGI O‘ZBEKISTON NAFASI KIRIB BORADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mahalla tizimini yanada takomillashtirish va joylarda ishlarni samarali tashkil etish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Keyingi yillarda mahalla institutini isloh qilish va uni xalq hayotiga yaqin, samarali tizimga aylantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Mahallada "yettilik" tizimi joriy qilinib, kredit, subsidiya, kompensatsiya, moddiy yordam ajratish kabi 100 dan ziyod xizmatlar mahalla darajasiga tushirilgani hisobiga 7,5 million fuqaro kambag'allikdan chiqdi, ishsizlik darajasi 2 barobar qisqardi. Shuningdek, 3,5 ming mahalla qiyofasi zamonaviy ko'rinishga keldi.

Mahalla raislarining vakolat muddati 3 yildan 5 yilga uzaytirildi. Ular boshchiligida "yettilik" vertikal tizimi yaratildi, yetarli sharoit, resurs va vakolatlar berildi. Mahalladagi har bir imkoniyatni loyihaga aylantirib, ish o'rni yaratish uchun mahallalarga bankir va soliqchilar birlashtirildi, infratuzilmaga ham alohida mablag' ajratilmoqda.

Davlatimiz rahbari bulardan samarali foydalanib, natija ko'rsatayotgan mahallalar ko'pligi, lekin ayrimlari yagona jamoa bo'lib ishlab ketishni haligacha o'rganmaganini ko'rsatib o'tdi.

— Norin tumanidagi Sho'rariq mahallasiga borganim viloyat hokimlari, respublika, viloyat, tuman rahbarlari, "yettilik"ning ko'zini ochib, ularni sifat va kompetensiyani oshirishga undashi kerak, — dedi Prezident.

O'tgan hafta imzolangan qarorga muvofiq, Yangi O'zbekiston ruhi kirib borishi kerak bo'lgan 33 ta tuman va 330 ta og'ir mahalla belgilab olindi.

Bu tumanlarning har biriga 100 milliard so'mdan, 330 ta mahallaning har biriga esa 5 milliard so'mdan mablag' ajratiladi. Jahon banki va Islom taraqqiyot bankidan jalb qilingan 100 million dollar ham mazkur maqsadlarga qaratiladi. Bundan tashqari, ushbu tuman va mahallalardagi "drayver" loyihalar infratuzilmasi uchun yana 2 trillion so'm ajratiladi.

Umuman, bu dasturni moliyalashtirish uchun 7 trillion so'mdan ziyod mablag' yo'naltiriladi.

Viloyat hokimlarining o'zi ham 2 tadan, tuman hokimlari esa 1 tadan og'ir mahallani belgilab, ularga 5 milliard so'mdan yo'naltirishi, yana 236 ta mahalla aholisi turmushida keskin o'zgarish qilishi shartligi ko'rsatib o'tildi.

Bir oy oldin "Tashabbusli budget" bo'yicha yangi qaror qabul qilinib, mahallada aholining o'zi faol bo'lib boshlagan loyihalarga ko'mak beradigan tizim joriy qilindi. Bunda qaysi mahallada aholi yo'l, suv, maktab, bog'chani ta'mirlashni boshlagan bo'lsa, xarajatining yarmini davlat qoplab beradi. Bu maqsadlar uchun kelgusi yilda yana 1 mingta loyihaga 500 milliard so'm ajratiladi. Prezidentimiz bu borada yana bir yangilikni e'lon qildi. Joriy yildan boshlab Soliq qo'mitasi yer va mol-mulk soliqlari ko'lganlik darajasiga qarab, "Eng yaxshi soliq to'lovchi mahalla" reytingini e'lon qiladi.

Bunda 100 talikka kirgan mahallaga "Tashabbusli budget"ning yangi tizimi bo'yicha infratuzilma xarajatining 75 foizi budjetdan to'lab beriladi. Shuningdek, ushbu mahallalarning har biriga qo'shimcha 2 milliard so'mdan ajratiladi.

Qonunchilik palatasi deputatlarining har biriga o'z okrugidagi mahallalar infratuzilmasini yaxshilash uchun 3 milliard so'mdan mablag' beriladi.

Hududdagi sanitariya, ekologiya va noqonuniy qurilish bo'yicha jarimalarning 10 foizi mahalla budjetiga yo'naltiriladi. Mahallalar byudjetiga 2026-yildan boshlab har yili 200 milliard so'mdan ajratiladi.

Umuman, ushbu manbalar hisobidan kelgusi bir yil uchun 2 mingta mahallaga qo'shimcha 8,5 trillion so'm mablag' beriladi.

Tuman hokimlari ushbu imkoniyatlardan unumli foydalanib, "mahalla yettiligi" bilan yangi yondashuvlar asosida ishlashi zarurligi qayd etildi.

Masalan, Norin tumanidagi Sho'rariq mahallasi atrofidagi yana 6 ta mahallaga xizmat ko'rsatadigan markazga aylantirildi. Bundan ruhlaniib, o'nlab tadbirkorlar turli loyihalarni ilgari surdi. Ushbu mahallalarga

arxitektor va urbanist jalb qilangani natijasida 7 ta mahalla qiyofasini butunlay o'zgartirish uchun imkoniyat paydo bo'lyapti.

Viloyat, tuman va shahar hokimlariga "Islohotlar shtabi" bilan birga birinchi bosqichda 33 ta tuman va 330 ta mahallada ishlarni ana shunday yondashuv asosida yo'lga qo'yish topshirildi.

Yig'ilishda mahallalarda tadbirkorlik loyihalarini kengaytirish masalalari ham muhokama qilindi.

Barcha mahallada ixtisoslashuvni oxiriga yetkazish kerakligi ko'rsatib o'tildi. Bunda mahallalar aholisi bilan uchrashib va ularning salohiyatidan kelib chiqib, aniq ixtisosligini belgilash, kamida 200 ming aholini band qiladigan mikroloyihalarni shakllantirish topshirildi.

Mahallalarga 2 ming kvadrat metrgacha bo'sh davlat obyektlarini auksionga chiqarish vakolati berilgan. Endilikda mahalla raisi va hokim yordamchisi bo'sh turgan 5 ming kvadratgacha bo'lgan davlat mulkini auksionga chiqarishi mumkin bo'ladi. Sotuvdan tushgan mablag'ning 70 foizi mahallaning o'zida qoladi va infratuzilmaga sarflanadi.

Shu bilan birga, mahalla binolarini zamonaviy servis obyektiqa aylantirish uchun tadbirkorlarga qo'shimcha yengilliklar beriladi.

Jumladan, shahar va viloyat markazida tadbirkorlar tomonidan qurilib, pastki qavatida "mahalla yettiligi" joylashadigan binolar 3 yil muddatga yer va mol-mulk solig'idan ozod qilinadi. Qishloq joylarda esa bu imtiyozlar 7 yil etib belgilanadi. Bino egasi bo'lgan tadbirkorlar ushbu muddat davomida foyda va aylanmadan soliqni 50 foiz pasaytirilgan stavkada to'laydi.

Yig'ilishda mahallalardagi ijtimoiy muhit va yoshlar tarbiyasi bo'yicha yechim topilishi kerak bo'lgan bir qator masalalar ko'rsatib o'tildi.

Xususan, oilalar ajrimlari, aliment to'lashdan bo'yin tovlash, oilasi va bolalarini kredit qarzlari bilan tashlab ketish holatlari uchrayotgani, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi

va erta nikohlarning salbiy oqibatlari barchani — hokimlar, "mahalla yettiligi", naroniylar, butun jamoatchilikni qattiq tashvishga solishi kerakligi qayd etildi.

Oila qurish bu — nafaqat o'zi, balki turmush o'trog'i va farzandlari oldidagi katta mas'uliyat ekanini yoshlarga tushuntirish, ajrimlar oqibatida taraffar, ayniqsa, farzandlar og'ir moddiy ahvolga tushishining oldini olish maqsadida nikoh shartnomasi tuzishning afzalliklarini targ'ib qilish lozimligi ta'kidlandi.

Ayrim mahallalar, ko'chalar, qurilishlar atrofi, ariqlar, xiyobonlarda ozodalik talablariga rioya etilmayotgani ko'rsatib o'tildi. Shu munosabat bilan butun respublikada tozalik va ozodalik oyligi e'lon qilinishi belgilanib, har bir tuman va shahar hokimiga, obodonlashtirishga mas'ul hokim o'rinbosarlariga tegishli topshiriqlar berildi.

Endilikda "yettilik", mahalla aholisi yashil hudud qilish tashabbusi bilan chiqsa, tuman hokimi 10 sotixgacha yer maydoni ajratib berishi belgilandi. Hokimlar va "yettilik" buning ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazorati o'rnatilishi, bu yerlardan boshqa maqsadlarda foydalanilsa, qonun ustuvor, jazo muqarrar bo'lishi haqida ogohlantirildi.

Mutasaddilarga "yettilik" faoliyatini kompleks baholaydigan tizimni ishga tushirish topshirildi.

Tuman hokimlari yil yakuniga ko'ra yaxshi ishlagan 10 ta "yettilik"ning barchasini mukofotlash, ularga qo'shimcha ustamalar berishni yo'lga qo'yadi. Bundan buyon "yettilik" xodimlari bilan har bir yo'nalish bo'yicha alohida yig'ilish o'tkazish taqiqlanishi belgilandi.

— Islohotlarimizning ostonasi bo'lgan har bir mahallaga Yangi O'zbekiston nafasini olib kirish, eng avvalo, "mahalla yettiligi"ning yagona jamoa bo'lib ishlashiga bevosita bog'liq, — dedi davlatimiz rahbari.

Yig'ilishda mutasaddilar va hududlar rahbarlarining hisobotlari tinglandi, mahalla raislari bilan muloqot qilindi.

O'ZA

OLIV DARAJADAGI SHERIKLIK VA ITTIFOQCHILIK MUNOSABATLARI YANADA RIVOJLANTIRILADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 14-oktabr kuni Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqot qildi.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish nuqtayi nazaridan yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikning asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atini saqlab qolish, shuningdek,

ikki mamlakat hududlari darajasidagi kooperatsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi.

Gumanitar hamkorlik, eng avvalo, madaniyat, san'at va ta'lim sohasida, shu jumladan, muhandis kadrlarni tayyorlash borasida kengayib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

O'ZA

Nuqtayi nazar

KO'P TOMONLAMA HAMKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MUHIM PLATFORMA

Markaziy Osiyo mintaqasi Osiyo va Yevropani bog'lab turuvchi muhim strategik hudud sifatida doim dunyo hamjamiyati e'tibor markazida turadi. O'zbekiston esa mintaqaning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti yaxshilanishiga katta hissa qo'shadigan muhim, eng ko'p aholiga ega, savdo-iqtisodiy aloqalarni kuchaytirishda tashabbuskor, jonbozlik ko'rsatayotgan davlatlardan biri.



Bugungi kunga kelib mintaqaviy davlatlari bilan hamkorlik mutlaqo yangi bosqichga chiqishi, o'zaro manfaatli hamkorlik kengayishi, yaxshi qo'shnichilik siyosati kuchayishida ham O'zbekistonning oqilona tashqi siyosatining o'rni va ahamiyati katta.

Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ochiq, amaliy, o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan faol tashqi siyosati

Prezidentimizning o'ziga xos "tashrif qog'ozi"ga aylandi. Ilk rasmiy tashriflar ham aynan mintaqaviy mamlakatlarga amalga oshirilgani so'zimizni isbotlaydi. Natijada mintaqada butunlay yangi, ochiq, sog'lom va do'stona siyosiy-iqtisodiy, madaniy-gumanitar muhit yaratildi.

Davomi 2-betda

Bugunning gapi

SUN'IY INTELLEKT

TARAQQIYOT, RAQAMLI SUVERENITET VA BARQAROR KELAJAK KALITI



XXI asrda sun'iy intellekt har bir mamlakatning barqaror rivojlanishida alohida o'rin tutmoqda. Endi u samaradorlikni oshirish vositasi bo'libgina qolmay, mamlakatning jahon miqyosidagi iqtisodiy va siyosiy o'rnini belgilaydigan strategik resursiga ham aylanmoqda.

Bugun sun'iy intellekt texnologiyalari sanoat, qishloq xo'jaligidan tortib, iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash, xavfsizlik va boshqa muhim yo'nalishlarga faol kirib bormoqda.

Albatta, global texnologik yuksalish davrida bu eng muhim yangilanish. Barcha

soha va tarmoqlarda modernizatsiya, raqamli transformatsiya jarayonini amalga qo'llayotgan O'zbekiston uchun sun'iy intellektidan foydalanish bu maqsad yo'lidagi muhim qadamdir.

Davomi 5-betda

XALQARO DARAJAGA CHIQQOAN milliy model

(Birinchi maqola)

Kambag'allik va uning tarixiy ildizlari

Kambag'allik masalasi insoniyat tarixida doimo dolzarb bo'lib kelgan. Har bir davrda uni bartaraf etishga qaratilgan iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy choralar ko'rilgan. XXI asrda kambag'allik nafaqat alohida davlatlar, balki dunyo miqyosida global muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois, xalqaro tashkilotlar, hukumatlar va fuqarolik jamiyati institutlari bu sohaga oid keng qamrovli strategiyalar ishlab chiqmoqda.

Dunyo aholisining kambag'allik darajasi geografik joylashuvi va aholi zichligiga qarab farq qiladi. Uni aniqlash uchun yagona andoza yo'q. Shuning uchun har bir mamlakatda kambag'allikni aniqlashning o'ziga xos usullari va yondashuvlari mavjud.

Kambag'allikning kelib chiqishi turli omillarga bog'liq. Iqtisodiy inqiroz, ishsizlik,



sanoat rentabelligi va sanoat mahsulotiga talab pastligi asosiy omil hisoblanadi. Shuningdek, nogironlik, uzoq muddatli

kasallik, keksalik, oilada ota-ona yo'qligi va bir oila qaramog'ida ko'p shaxs borligi, ta'lim darajasi pastligi, kasbiy tayyorgarlik

Buyuk o'zbek yo'li

yeterli emasligi, harbiy to'qnashuvlar hamda majburiy migratsiyani ham kambag'allikni keltirib chiqaruvchi omillar sirasiga qo'shish mumkin.

Iqlim o'zgarishlari, pandemiyalar, iqtisodiy o'sishning sekinlashuvi va geosiyosiy o'zgarishlar tufayli oshib borayotgan beqarorlik sharoitida kambag'allik muammosi yanada dolzarb tus oldi. Bugun davlatlar va xalqaro hamjamiyat oldida kambag'allikning nafaqat joriy oqibatlarini yumshatish, balki qayta paydo bo'lishining oldini olishga qaratilgan samarali strategiyalarni ishlab chiqish va joriy etishdek murakkab vazifa turibdi.

Davomi 3-betda

15-oktabr — Xalqaro qishloq ayollari kuni

SABOT VA BARDOSHDAN YARALGAN HAQIQATLAR

Cho'l shunchaki tabiat manzarasi emas. U bir olam sinov, bir dunyo saboqlar makoni. U yerda hayot ham, vaqt ham boshqacha o'tadi. Cho'lda tirikchilik sinov, yashash esa jasorat, har bir qatna suv qadrlri, har bir soyabon xazina. Bunda bir kun jazirama imtihon qilsa, yana birida sovuq tanangizni titratadi. Ammo aynan shu qarama-qarshiliklar insonni toblaydi, uni chin ma'nodagi sabr va matonatga o'rgatadi.

Davomi 4-betda





2025-yil 15-oktabr, 211-son

NIGOH

YANGI O‘ZBEKISTON



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



Nuqtayi nazar

KO‘P TOMONLAMA HAMKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MUHIM PLATFORMA



Ravshan FOZILOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

Boshlanishi 1-betda

Qo‘shni mamlakatlar bilan chegaralar ochilishi, iqtisodiy, savdo, madaniy-ma‘rifiy, umuman, barcha sohalaridagi hamkorlik xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlash barobarida umumiy iqtisodiy o‘shida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ya‘ni munosabatlar nafaqat iqtisodiy manfaatdorlik, balki o‘zaro ishonch, do‘stlik, yakdillikka asoslanayotganini ko‘rish mumkin. Mintaqa davlatlari umumiy muammolarni birligida hal etish, barcha masalada bir-birini qo‘llab-quvvatlash orqali yanada rivojlanishga intilyapti. Bu jarayonlarda esa O‘zbekistonning o‘rni va hissasi tobora mustahkamlanib borayotir.

Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Prezidenti etib saylanganidan so‘ng mintaqa davlatlari o‘rtasidagi munosabatlar dinamikasi tubdan o‘zgardi. Siyosiy iroda va ochiq muloqot tufayli O‘zbekiston barcha qo‘shnilar bilan chegaralarni delimitatsiya qilishni yakunladi va bu mintaqada barqarorlik yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari siyosati nafaqat mamlakatlar o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlashga xizmat qildi, balki iqtisodiy o‘shish va madaniy almashinuv uchun yangi uqlarni ochdi. O‘tgan sakkiz-to‘qqiz yilda Markaziy Osiyo tubdan va sifat jihatidan o‘zgardi. Yagona mintaqa sifatida shakllanib, xalqaro huquq subyektiga aylandi.

Prezidentimiz nafaqat qo‘shni mamlakatlar bilan ochiq va amaliy hamkorlikni rivojlantirishni tashqi siyosatning muhim yo‘nalishi sifatida ko‘rdi, balki O‘zbekiston bilan ijtimoiy-siyosiy, biznes, savdo-sotiq — iqtisodiy shartnoma va kelishuvlarga tayyor bo‘lgan Rossiya, Xitoy, Yevropa mamlakatlari, okeanortri davlatlari, turli xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik aloqalarini o‘rnatdi.

Bir so‘z bilan aytganda, keyingi yillarda O‘zbekiston butun dunyoga ochildi. Ayniqsa, mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirishga alohida urg‘u bermoqda. Jumladan, O‘zbekiston tashqi siyosatida Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi ham shunday muhim platformalardan biri.

Keyingi yillarda O‘zbekistonning MDH ishidagi ishtiroki faollashib, hamdo‘stlikka a‘zo davlatlar bilan hamkorligi turli yo‘nalishlarda izchil va har tomonlama rivojlanib bormoqda. Xususan, davlatimiz rahbari o‘tgan sammlarlarda MDH mamlakatlari taraqqiyotiga va xalqlarimiz

farovonligiga xizmat qilayotgan 100 dan ortiq tashabbusni ilgari surgan.

Shu yil 10-oktabr kuni Dushanbe shahrida bo‘lib o‘tgan MDH Davlat rahbarlari kengashidagi nutqida ham Prezidentimiz qator tashabbus va loyihalarni hayotga tatbiq etishni taklif qildi.

MDH Davlat rahbarlari kengashi O‘zbekiston uchun shunchaki muloqot, fikr almashish va qarashlarni solishtirish maydoni emas, balki ustuvor sohalarida amaliy hamkorlik qilishning g‘oyat muhim instituti hisoblanadi. Hamdo‘stlikka a‘zo mamlakatlar esa O‘zbekistonning doimiy sheriklari, qo‘shnilar va do‘stlaridir. Shu bois, yurtimiz o‘zaro munosabatlarida hamisha qat‘iy, sobit turishga intiladi, manfaatli hamkorlikni ilgari suradi.

Mamlakatimiz tashkilot doirasida barcha sohalarida hamkorlikning ijobiy dinamikasini saqlab kelmogda. Xususan, ushbu tuzilma makonida O‘zbekiston uchun ko‘p tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlik asosiy yo‘nalishlar qatorida katta qiziqish uyg‘otmoqda. MDH doirasida erkin savdo zonasi mavjudligi O‘zbekistonga qo‘shni davlatlar bilan savdo-sotiqni rivojlantirish, eksport va import hajmini oshirish imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida,

prinsipial jihatdan o‘ziga xos sahifa ochilib, keng ko‘lamli va samarali sheriklikni kengaytirish uchun qulay imkoniyatlar yaratildi.

MDH makonida to‘laonli erkin savdo zonasini shakllantirish va transport bog‘liqligini mustahkamlash muhim. O‘zbekiston ushbu jabhada mazkur tuzilmaga a‘zo davlatlar bilan ham ko‘p tomonlama, ham ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratmoqda.

Jumladan, Dushanbe sammitida Prezidentimiz ilgari surgan amaliy taklif va tashabbuslar yetakchi siyosatchilar, ekspertlar tomonidan yakdillik bilan qo‘llab-quvvatlanganiga guvoh bo‘ldik.

Sammitda mamlakatimiz rahbari o‘tkir, dolzarb va aniq takliflarni ilgari surib, MDH doirasidagi sheriklikni mustahkamlashning muhim yo‘nalishlari yuzasidan o‘z nuqtayi nazarini bayon qildi. Bu, shubhasiz, mamlakatlarimiz va xalqlarimiz farovonligi yo‘lida MDH makonida ko‘p tomonlama munosabatlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Ilgari surilgan tashabbuslar nafaqat tashkilotning maqomini yanada oshirish, balki bugungi kun va istiqbolda unga a‘zo mamlakatlar



iqtisodiyotimiz o‘shishiga xizmat qiladi.

Yurtimiz tashqi savdo aylanmasining 35,1 foizi MDH davlatlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Birgina 2024-yilda hamdo‘stlik mamlakatlari bilan o‘zaro savdomiz 23,1 milliard dollari tashkil qildi. O‘zbekistonda MDHga a‘zo davlatlar kapitali ishtirokidagi 5,5 ming kompaniya faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekiston tomonidan bildirilgan tashabbuslar shunchaki qog‘ozda qolib ketayotgani yo‘q. Ular faol hayotga tatbiq etilib, mintaqa davlatlarining har sohada rivojlanishiga xizmat qilmoqda. So‘nggi yillarda erishilayotgan natijalar, o‘shish ko‘rsatkichlari ham fikrimiz isbotidir.

2024-yilda Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish doirasida MDHga a‘zo davlatlar hududidan o‘tadigan xalqaro transport yo‘laklarini rivojlantirish va infratuzilmani optimallashtirish bo‘yicha harakatlar rejai, 2025-2027-yillarga mo‘ljallangan deradikalizatsiya sohasidagi hamkorlik dasturi va boshqa muhim hujjatlar qabul qilindi.

O‘zbekistonning tashkilotdagi tashabbuskorligi, aniq g‘oya va takliflari uning ishini jadallashtirdi, MDH faoliyati yangi mazmun bilan boyidi. Davlatlararo munosabatlarda

aholining tinchligi va farovonligini ta‘minlash orqali ijtimoiy barqarorlikni saqlashga yo‘naltirilgani bilan diqqatga sazovor. Zero, u asosiy natijalarni sarhisob qilish va hamdo‘stlik doirasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikning keyingi rejalarni belgilab olish imkonini berdi.

Prezidentimiz nutqida transport sohasida o‘zaro hamkorlikni chuqurlashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgani bejiz emas. Chunki MDH makonida transport tarmog‘ida amaldagi yo‘laklarning o‘tkazish samaradorligini pasaytiradigan muammolar hamon saqlanib qolmoqda. Bu esa barcha transport turlari bilan integratsiyalashgan axborot-logistika markazlarini yaratishni talab etadi.

Shuningdek, yuk tashish infratuzilmasini modernizatsiya qilish uchun xususiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan transport sohasida davlat-xususiy sheriklik masalalari bo‘yicha MDH mamlakatlari konferensiyasini O‘zbekistonda o‘tkazish rejalashtirilmoqda. Bu nafaqat yuk tashish samaradorligini oshirish, balki mintaqaviy savdo aylanmasini ko‘paytirish, yangi tranzit yo‘nalishlarini ochish, eksport

salohiyatini yuksaltirishga zamin yaratadi.

Mamlakatimiz yetakchisining maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashga oid “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish, MDH vechur platformasini yaratish orqali startaplar va innovatsion g‘oyalarni moliyalashtirish tizimini yo‘lga qo‘yish taklifi ham hozirgi raqobat muhitida nihoyatda muhimdir. Zero, bu innovatsion iqtisodiyot sari qadam tashlash, ilmiy izlanishlar va texnologiyalarning amaliyotga joriy etilishiga keng yo‘l ochadi.

“

Davlatimiz rahbarining Toshkent shahrida “INNOPROM” ko‘rgazmasi doirasida MDH innovatsion sanoat forumini o‘tkazish taklifi ham erkin muhim chiqariglardan biri bo‘ldi. Bu qo‘shma ishlab chiqarish loyihalarini muhokama qilish, sanoat kooperatsiya-sini chuqurlashtirish, zamonaviy texnologiyalar almashinuvinu yo‘lga qo‘yish uchun muhim platforma bo‘lib xizmat qiladi. Natijada a‘zo davlatlar o‘rtasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda o‘zaro bog‘liqlik kuchayadi, mahalliyashtirish darajasi oshib, eksportga yo‘naltirilgan yangi qo‘shma korxonalar tashkil etiladi.

Sirasini aytganda, Prezidentimizning ushbu nutqi ko‘plab ezuq maqsadlarni ko‘zlagani bilan tarixiy ahamiyatga ega. Chunki hozirgi ziddiyatli va murakkab geosiyosiy vaziyat, dunyoning ba‘zi mamlakatlari duch kelayotgan keskinliklar fonida MDH mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli va ko‘p tomonlama hamkorlik mintaqamiz, xususan, O‘zbekiston uchun tinch va barqaror rivojlanishda juda muhimdir.

Sammit yakunida MDH doirasidagi hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha imzolangan kelishuv va qarorlar, shubhasiz, O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘shishi va xalqimiz farovonligini oshirishga yaqindan yordam beradi.

Umuman olganda, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar qisqa muddatda butun mintaqada uyg‘un iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishni ta‘minlash, o‘zaro manfaatli va ishonchli hamkorlikni, millatlararo do‘stlik rishtalarini mustahkamlashda o‘z natijasini berishiga ishonamiz. Zotan, ushbu takliflar MDH doirasidagi hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ
TILIDA HAM O‘QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER QILING!



Sharh

NOGIRONLIKNI BELGILASHDA YANGICHA TIZIM

Inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlash har bir demokratik jamiyatning eng muhim qadriyatlaridan biri. Bunda nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari alohida ahamiyatga ega, ular jamiyatning teng huquqli a‘zolari sifatida himoyalaniishi kafolatlangan bo‘lishi zarur. Bugungi davrda bu yo‘nalishda o‘ziga xos yutuqlar barobarida qator jiddiy muammolar ham mavjud. Misol uchun, jismoniy imkoniyati cheklangan insonlarning aksariyati sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlardan foydalana olmaydi.

Nogironligi bor bolalarni ta‘limga jalb etish va zo‘ravonlikning turli shakllaridan himoyalash ham dolzarb vazifa. Jahon hamjamiyati bu borada bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, BMTning nogironlar huquqlari bo‘yicha maxsus konvensiyasi dunyoning qator davlatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan va unda belgilangan vazifalar ijrosi bo‘yicha ish olib borilyapti.

Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda ijtimoiy davlat maqomini o‘z zimmasiga olgan O‘zbekiston uchun ham bu tamoyillarni ro‘yobga chiqarish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Bosh qonunimizga ko‘ra, mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida. Shunga muvofiq, davlat nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektleri va xizmatlaridan to‘laonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi, ishga joylashishi, ta‘lim olishiga ko‘maklashadi, ularga zarur bo‘lgan axborotni to‘sqinliksiz olish imkoniyatini ta‘minlaydi.

Hozirgi kunda yurtimizda nogironligi bo‘lgan 1 millionga yaqin shaxs, jumladan, 100 mingdan ortiq 16 yoshgacha bola bor. Inson qadri, uning huquq va manfaatlarini ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi etib belgilangan mamlakatimizda barcha fuqarolarimiz kabi nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyat hayotining turli sohalarida ishtirok etishi uchun zarur sharoitlar yaratish bo‘yicha davlat tomonidan tizimli ishlar izchil davom ettirilmoqda.

nogironlikni belgilashda shifokorlik-maslahat komissiyalari degan korruptsiyon tizimdan to‘liq voz kechilishi aytilgandi. Endi bu jarayon oilaviy shifokor rasmiylashtirgan hujjat asosida tibbiy-ijtimoiy ekspertiza komissiyasi tomonidan belgilanishi qayd etildi.

Vazirlar Mahkamasi qarori asosida esa bu ishlarni tashkil etishning mezonlari aniq belgilab berildi. Jumladan, avval bemorlar faqat tuman markaziy poliklinikalarining vrachlik-maslahat komissiyalariga og‘zaki murojaat qilgan bo‘lsa, endilikda nogironlikni belgilash masalasida “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari, ijtimoiy xodimlar, my.gov.uz portali va oilaviy shifokorlar orqali murojaat qilish imkoniyati yaratildi.

Ushbu yo‘nalishdagi ishlar yuzasidan o‘tkazilgan tajriba-sinov davrida (2025-yil 1-apreldan bugungi kunga qadar) Toshkent shahri va Navoiy viloyatida 12,5 ming ariza tushgan. Shundan “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari orqali 6,5 ming, oilaviy shifokor orqali 5,9 ming, elektron portal orqali 17 ta murojaat yo‘llangan.

Yana bir yangilik nogironlikni belgilashda kasallikdan kelib chiqib individual davolanish muddatlari va minimal tibbiy tekshiruv mezonlari aniqlashtirilganidir. Ahamiyatlisi, bu jarayonda bir qancha kasallik holatlarida davolanish muddati talab etilmaydi. Qolaversa, sirdan (ko‘rikka chaqirtirmasdan) nogironlik belgilanadigan kasalliklar va uning asoratlari ro‘yxati 48 tadan 60 taga kengaytirildi.

Kasallik turi va bemorning holati bo‘yicha nogironlikni qancha muddatga,

“

Endilikda tibbiy ijtimoiy ekspertiza tizimida yagona yondashuvni shakllantirish maqsadida hududiy TIEKlarga uslubiy ko‘mak beriladi. Bu ishlarni amalga oshirish maqsadida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimida Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi tashkil etildi. Bu komissiyalarda terapevt, nevrolog, xirurg, pediater vrach-ekspert lavozimiga ishga qabul qilinishi mumkin bo‘lgan tibbiy mutaxassislklar ro‘yxati ham tasdiqlandi.

2020-yilda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonun yangi tahrirda qabul qilingani bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirdi. Mazkur qonun bilan imkoniyati cheklangan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish va huquqlarini kafolatlashga oid qator masalalar qonun darajasida belgilandi.

2021-yilda O‘zbekiston parlamenti tomonidan BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya ratifikatsiya qilindi. Shu bilan birga, yurtimizda barcha insonlar, jumladan, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun bir xil imkoniyatlar amal qiladigan inkluziv jamiyatni barpo etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilyapti. Nogironlikni belgilashning allaqachon eskirgan tibbiy modelidan umume‘tirof etilgan ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o‘tish ko‘zda tutilgan.

Vazirlar Mahkamasining shu yil 16-sentyabrda “Nogironlikni belgilash tizimi raqamlashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarori bu borada muhim asos bo‘ldi. Mazkur hujjatga muvofiq, ushbu tizimga bir qator o‘zgartirishlar kiritilmoqda. Nogironlikni belgilash masalasidagi o‘zgarishlar shulardan biri.

Ilgari tug‘ma yoki orttirilgan xastaliklar tufayli nogironlik guruhiga chiqishga ehtiyoj sezgan fuqarolar bir necha bosqichda tibbiy ko‘riktan o‘tishi, davolanishi, bir qancha hujjat yig‘ishi talab etilar, bu o‘zi xasta inson uchun og‘ir va tashvishli jarayon edi.

Prezidentimiz raisligida shu yil 7-may kuni tibbiyotning birlamchi bo‘g‘ini va ixtisoslashgan muassasalarda xizmatlar sifatini oshirish, dori iste‘molini tartibga solish hamda tibbiy ta‘limni takomillashtirish bo‘yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektorda sohadagi ko‘plab dolzarb masalalar qatorida

qaysi guruhga belgilash hamda reabilitatsiya tadbirlarini aniqlashtirish haqida yagona standartlar mavjud bo‘lmagani va tizim raqamlashtirilmagani sababli nogironlikka doir xulosalarda va belgilashda xatoliklar mavjud bo‘lgan, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari Abdug‘ofir Narzullayev. — Yangi hujjat bilan nogironlikka olib keluvchi asosiy kasalliklar ro‘yxati bo‘yicha nogironlikni yagona mezon asosida elektron belgilash imkoniyati yaratildi. Tizim dastlab Toshkent shahri va Navoiy viloyatida sinovdan o‘tgan bo‘lsa, 2025-yil 1-oktabrga qadar qolgan hududlarda ishga tushiriladi. Bunda bemorning ma‘lumotlari asosida nogironlik guruhi va muddati, o‘zgalar parvarishiga, tibbiy reabilitatsiyaga hamda protez mustlamasi yoki reabilitatsiya vositasiga muhtojligiga oid ma‘lumotlar avtomatik ravishda inson omilisiz “Yagona milliy ijtimoiy himoya” axborot tizimida shakllantiriladi.

Qaror bilan o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan 18 yoshgacha bolalarning kasalliklari ro‘yxati yangi tahrirda tasdiqlandi. Shuningdek, nogironligi bo‘lgan shaxsni reabilitatsiya qilishning yakka tartibdagi dasturi “Yagona milliy ijtimoiy himoya” axborot tizimida elektron shakllantirilishi belgilandi.

Endilikda tibbiy ijtimoiy ekspertiza tizimida yagona yondashuvni shakllantirish maqsadida hududiy TIEKlarga uslubiy ko‘mak beriladi. Bu ishlarni amalga oshirish maqsadida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimida Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi tashkil etildi. Bu komissiyalarda terapevt, nevrolog, xirurg, pediater vrach-ekspert lavozimiga ishga qabul qilinishi mumkin bo‘lgan tibbiy mutaxassislklar ro‘yxati ham tasdiqlandi.

**Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

TASHQI IQTISODIY ISHONCHLI

MANFAATLARNING HIMOYASI

Butunjahon standartlar kuni munosabati bilan poytaxtimizda “Standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohalaridagi innovatsion g‘oyalar va ishlanmalar” ko‘rgazmasi hamda “Yil standartchisi — 2025” va “Sifat sohasidagi muvaffaqiyat” milliy mukofoti sovrindorlarini taqdirlash marosimi tashkil etildi.

Standartlashtirish

Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga asosan O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi huzuridagi O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan hamkorlikda o‘tkazilgan tadbirga Toshkent shahridagi “INNO” innovatsion o‘quv va ishlab chiqarish texnoparki mezonlik qildi. Unda mahalliy va xorijiy oliy ta‘lim, ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda tadbirkorlik subyektlari ishtirok etdi.

Mehmonlar e‘tiboriga ko‘rgazma doirasida standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohasidagi innovatsion loyihalar va yechimlar hamda eksponatlar havola etildi. Ko‘rgazmaning “Standartlashtirish tizimlari va ularni amaliyotda qo‘llash”, “Metrologiya sohasida yangi asbob-uskunalar va o‘lchov texnologiyalari”, “Muvofiqlikni baholash metodlari va sertifikatlash tizimlari”, “Ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalarini sertifikatlash”, “Ishlab chiqarishning raqamli

transformatsiyasi va unga tegishli standartlar” kabi bo‘limlari ishtirokchilarda katta qiziqish uyg‘otdi.

— O‘zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni Jahon savdo tashkiloti talablari va Savdodagi texnik to‘siqlar to‘g‘risidagi bitim asosida takomillashtirilmoqda, — deydi O‘zbekiston standartlar instituti direktori Abdurauof Abduqayumov. — Ushbu qonunning qayta ko‘rib chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi standartlashtirish sohasini xalqaro tajriba asosida takomillashtirish, shuningdek, O‘zbekistonning JST kabi xalqaro iqtisodiy tuzilmalarga tekzor integratsiyasini ta‘minlaydi. Bu esa mamlakatimizga tashqi savdoda o‘z pozitsiyasini mustahkamlash, shuningdek, har tomonlama manfaatli hamkorlikni amalga oshirish imkonini beradi.

2024-yilning o‘zida 1739 ta xalqaro standart qabul qilinishi natijasida milliy standartlarning xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashish darajasi 2023-yildagi



24,2 foizdan 30,6 foizga yetkazilgan edi. Davlatimiz rahbarining o‘tgan yil 10 oktabr kuni texnik jihatdan tartibga solish sohasida amalga oshirilgan ishlar va kelgusidagi rejalarni to‘g‘risida o‘tkazilgan taqdimotda bergan topshiriq‘iga asosan 2025-yilda milliy standartlarning xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashish darajasini 40 foizga yetkazish vazifasi qo‘yilgan.

Mazkur topshiriq ijrosini ta‘minlash maqsadida ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish sohalarini uchun dolzarb 2590 ta xalqaro standart ro‘yxati shakllantirilib, standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mtalar xulosasiga asosan mamlakat hududida qabul

**Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**



XALQARO DARAJAGA CHIQQAN milliy model

(Birinchi maqola)



Naim OBLOMURODOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti professori,
tarix fanlari doktori

Boshlanishi 1-betda

Ijtimoiy adolat va tenglikka intilish

Kambag'allik har bir jamiyatga xos bo'lsa-da, darajasi va ko'lamini o'zgacha kechadi. Uning darajasi ham turli mamlakatlarda o'ziga xos yondashuvlar doirasida aniqlanadi. Chunki mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi, resurslari, aholi turmush tarzi, tarixiy qadriyatlar, madaniyat va urf-odatlar rang-barang.

Kambag'allik iqtisodiyot darajasiga teskari mutanosib bo'ladi. Iqtisodiyoti zaif mamlakatlarda kambag'allar ko'p bo'lsa, iqtisodiyoti kuchli jamiyatda ular ozchilik. Kambag'allikning doimiy va o'tkinchi shakli mavjud. Doimiylik bu kishilarning uzoq vaqt kambag'allik holatida qolib ketishi, o'tkinchi shakli esa kambag'allik holatiga vaqti-vaqti bilan tushib turishidir. Iqtisodiyoti zaif mamlakatlarda kambag'allik doimiy bo'lsa, rivojlanganlarda u o'tkinchi tusga ega. Daromadlardagi tengsizlik bozor tizimi belgisi ekan, shu tizimda kambag'allar bo'lishi obyektiv hodisadir. Shu sababli kambag'allikni butunlay tugatib bo'lmaydi, lekin uning miqyosini qisqartirish mumkin.

Kambag'allikni faqat iste'moldagi yetishmovchilik deb tushunish xato. U mamlaka yetishmasligi va sog'liq yomonligi bilan ham ifodalanadi. Chunki bular daromad topishga to'sqinlik qiladi. Kambag'allik ijtimoiy hodisa bo'lib, iqtisodiyotning darajasi va ishlohtlar samarasiga bog'liq. Yuzaki qaraganda, kambag'allik subyektning o'ziga bog'liqdek, nochor ahvolda qon kechirishda kishining o'zi aybdordek tuyuladi. Albatta, har bir kishi va xonadon o'z farovonligi uchun javobgar. Lekin buning uchun jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarni va amaldagi huquqiy qonun-qoidalar inson faoliyatini har tomonlama keng ochib berishga qodir bo'lishi kerak. Bu qoidalar ichida eng muhimi iqtisodiy erkinlikdir.

Qadimgi Sharqda kambag'allik ko'proq "rizqning tanqisligi" bilan, Yevropada esa o'rta asrlarda u dinning "taqdir" va "sinov" haqidagi qarashlari bilan izohlangan. Industrial jamiyatda kambag'allik ishsizlik va iqtisodiy tengsizlik bilan chambarchas bog'landi.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan kambag'allik faqat moddiy ehtiyojlar cheklanganligi emas, balki insonning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishi va madaniy hayotda o'z o'miga egalik qilish imkoniyatlaridan mahrum bo'lishidir.

Xalqaro huquqda kambag'allik masalasi inson huquqlari bilan chambarchas bog'langan. BMning Barqaror rivojlanish maqsadlarida 2030-yilgacha yuqori darajadagi qashshoqlikni bartaraf etish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Iqtisodiy jihatdan kambag'allik insonning daromadi va iste'mol qobiliyati bilan o'lchanadi. Jahon banki 2,15 AQSH dollari (so'nggi hisob-kitoblarda 3,65 dollar) miqdoridagi kunlik daromaddan kam darajani "ekstremal kambag'allik" deb ta'riflaydi. Shu bilan birga, nisbiy kambag'allik tushunchasi ham bor: u jamiyatning o'rta darajada darajasidan sezilarli darajada past hayot kechirish holatidir.

Qadimgi jamiyatlarda kambag'allik ko'proq diniy va ma'naviy kontekstda tushuntirilgan.

Masalan, antik davrda Aristotel kambag'allikni tabaqalanishning tabiiy oqibati sifatida ko'rgan. Qadimgi Sharqda esa kambag'allik ko'proq taqdir va ilohiy iroda bilan bog'langan holda talqin qilingan.

O'rta asrlarda Yevropada cherkov kambag'allikni diniy qadriyat sifatida talqin etdi. Biroq bu holat ko'pincha ijtimoiy adolatsizlikni qonuniylashtirishga xizmat qilgan. Islom sivilizatsiyasida esa zakot va sadaqa kabilar orqali kambag'allikni yumshatishga institutsional yondashuv shakllangan.

Sanoat inqilobi davrida kambag'allik muammosi yangi ko'rinish oldi. Qishloqdan shaharga ommaviy ko'chish, ishchi sinfning paydo bo'lishi va mehnat bozoridagi ekspluatatsiya kambag'allik muammosini yanada kuchaytirdi. Shu davrda Yevropa davlatlari ijtimoiy sug'urta va kambag'allikka qarshi dasturlarni joriy etishni boshladi.

XX asrda "ijtimoiy davlat" konsepsiyasi paydo bo'lib, aholining barcha qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish mexanizmlari shakllandi. Jumladan, Germaniyada Bismark islohotlari, keyinchalik Skandinaviya modellari ijtimoiy siyosatning samarali namunasi bo'ldi.

Barqaror rivojlanish va kambag'allik

XXI asrda globalizatsiya va raqamli iqtisodiyot sharoitida kambag'allikka qarshi kurashning yangi yo'nalishlari paydo bo'ldi. Masalan, shartli pul transferlari, mikromoliya tashkilotlari va ijtimoiy tadbirkorlik orqali

**Prezidentimizning
2020-yil 24-yanvar kuni
Oliy Majlisga yo'llagan
Murojaatnomasida: "Bir oilada
mashina ham, chorva ham bo'lishi mumkin,
lekin bir kishi og'ir kasal bo'lsa, oila
daromadining kamida 70 foizi uni davola-
tishga ketadi. Xo'sh, bunday oilani o'ziga to'q
deyish mumkinmi? Prezident sifatida meni
odamlarimizning ovqatlanishi, davolanishi,
bolalarini o'qitishi, kiyintirishi kabi
hayotiy ehtiyojlari nima bo'lyapti
degan savol har kuni qiynaydi",
deya ta'kidlagan
edi.**

aholining iqtisodiy imkoniyatlari kengaydi. Bu jarayonlar kambag'allikni faqat ijtimoiy himoya vositalari bilan emas, balki iqtisodiy faoliyatga qatnashish orqali bartaraf etish mumkinligini ko'rsatdi.

Kambag'allikka qarshi kurashishda turli mintaqalarda turli modellar sinab ko'rilgan va ayrimlari samarali natija bergan. Ular jamiyatning madaniy xususiyatlari, davlatning iqtisodiy kuchi va institutsional salohiyatiga qarab shakllangan.

Yevropa Ittifoqi davlatlari, ayniqsa, Skandinaviya mamlakatlari ijtimoiy davlat modelini joriy qilishda yetakchi bo'ldi. Bu davlatlarda yuqori soliq stavkalari hisobidan keng qamrovli ijtimoiy xizmatlar moliyalashtirildi. Sog'liqni saqlash, ta'lim va mehnat bozoridagi kafolatlar aholining barcha qatlamlari uchun teng imkoniyat yaratdi. Natijada kambag'allik darajasi jahondagi eng past ko'rsatkichlarga tushdi.

Janubiy Amerikada Braziliyaning "Bolsa Familia" dasturi keng e'tirof etilgan. Bu dastur bo'yicha shartli naqd pul transferlari orqali kambag'al oilalarning bolalari maktabga borishi va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishi shart qilib qo'yilgan. Natijada ta'lim va



sog'liqni saqlash ko'rsatkichlari yaxshilandi hamda ijtimoiy harakatchanlik oshdi.

Osiyoda Xitoy tajribasi e'tiborga loyiq. 1980-yillardan boshlangan Den Syaopin islohotlari natijasida 800 milliondan ortiq inson kambag'allikdan chiqarildi. Buning asosiy sabablari qishloq xo'jaligida samaradorlikka erishish, infratuzilmani kengaytirish va kichik biznesni rag'batlantirish bo'ldi.

Hindistonda esa "Mahatma Gandhi National Rural Employment Guarantee Act" — MGNREGA dasturi joriy etildi. Bu dastur orqali har bir qishloqda yashovchi oilaga yiliga kamida 100 kunlik mehnat kafolati berildi. Natijada qishloq aholisi barqaror daromad manbai bilan ta'minlandi.

Afrika qit'asida Ruanda va Efiopiya tajribalari aholi turmush darajasini oshirishda ijobiy natija berdi. Ruandada ayollar tadbirkorligini rag'batlantirish orqali kambag'allik kamaytirilgan bo'lsa, Efiopiya qishloq infratuzilmasiga yirik investitsiyalar kiritish orqali muvaffaqiyatga erishildi.

Xalqaro tajriba ko'rsatmoqdaki, kambag'allikka qarshi kurashishning samarali modeli faqat moliyaviy yordam berish bilan chegalanmaydi. U ijtimoiy xizmatlar, ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilma va mehnat bozori imkoniyatlarini qamrab olgan kompleks strategiya bo'lishi shart.

Kambag'allikka qarshi samarali kurashish uchun mehnat bozori, tadbirkorlik va kredit tizimi, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, qonun ustuvorligi, shaffoflik, hisobdorlik, fuqarolik jamiyati, NNTlar kabi institutlar muhim ahamiyatga ega.

Kambag'allikni qisqartirish yoki ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar orqali kambag'allikni yengib o'tish uchun, birinchi navbatda, kambag'allik darajasini aniqlab olish, ya'ni ushbu yo'nalishdagi obyektlarni to'g'ri belgilash

sohaga oid davlat siyosati samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi birlamchi omil hisoblanadi.

Kambag'allik millatning sog'lig'i, mehnatga layoqati va ilmiy salohiyatiga putur yetkazadi. Oqibatda davlat budjeti pasayishi va siyosiy jarayonlar keskinlashishi kuzatiladi.

Shu o'rinda 2019-yilda iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan olimlar Maykl Kremer, Abxijit Banerji, Ester Dyuflo aynan jahonda kambag'allikni pasaytirish bo'yicha tadqiqotlari uchun mukofotlanganini esga olish zarur. Ular kambag'allikni aniqlash va bartaraf qilish borasida ijtimoiy innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etishdi.

Shu paytga qadar BMT, Jahon banki, Jahon valyuta jamg'armasi va turli tashkilotlar tomonidan kambag'al davlatlarga milliardlab dollar miqdorida moliyaviy yordamlar, subsidiyalari yo'naltirilganiga qaramay, aholining savodxonligi o'sib ketmadi, o'zini o'zi ish bilan ta'minlash va tadbirkorlik qobiliyati oshib qolmadi. Aynan yuqorida nomlari tilga olingan olimlar buni isbotlab berishdi va dala tajribasi asosida kambag'allikdan forig' bo'ladigan "tabletkani"ni kashf qildi.

Ulaming tadqiqotlariga ko'ra, kambag'allikni yuzaga keltiradigan omillar, shart-sharoitlarni diagnostika qilish orqali har bir mamlakat, hudud va oila kesimida uni bartaraf etish mumkin.

Kambag'allik darajasi mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasini va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samaradorligini baholash, aholining ijtimoiy farovonligi va turmush darajasi hamda jamiyatning tabaqalanish ko'rsatkichlari to'g'risida xulosa chiqarish orqali aniqlanadi. Kambag'allik darajasini aniqlash orqali esa mamlakatdagi inson kapitali holatiga baho berish, aholining madaniy, iqtisodiy faolligi va sotsial mobillik darajasini baholashga ko'maklashish hamda millat ma'naviyati va psixologiyasini kengroq anglash mumkin.

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yuritishdagi ustuvor vazifalaridan biri jamiyatda kambag'allik darajasini kamaytirishdan iborat

ekanini hisobga olsak, uning ijrosini ta'minlash uchun dastlab kambag'allik darajasini baholab olish lozim.

Kambag'allikni qisqartirishni tadqiq qilishdan oldin uni aniqlash uchun aholi guruhlari kesimida quyidagi yo'nalishdagi ma'lumotlar zarur:

- oila a'zolarining xususiyatlari: yoshi, jinsi, millati, ma'lumoti va sog'lig'i;
- uy xo'jaligining demografik xususiyatlari: oila boshlig'ining jinsi, qaramog'idagi kishilar yoshining kattaligi va nisbati (mehnatga layoqatli kattalar soniga nisbatan bolalar va keksalar soni);
- mulk: yer, chorva mollari, resurslari va ijtimoiy kapital;
- faoliyat: faoliyat sohasi, sotiladigan ekinlar, bandlik turi;
- manzil: viloyat, shahar, tuman, qishloq, mahalla, xonadon;
- kommunal xizmatlardan foydalanish;
- elektr energiyasi, suv ta'minoti, sog'liqni saqlash, maktab, ijtimoiy yordam dasturlari;
- bozor va xususiy xizmatlar: bozorgacha bo'lgan masofa, yo'l infratuzilmasi, moliyaviy xizmatlardan foydalanish.

Kambag'allik darajasini aniqlashga oid turli metodik yondashuvlar iqtisodiy, sotsiologik va siyosiy fanlar kesimida mavjud bo'lib, ular milliy va xalqaro darajada bir-biridan farqlanadi. Milliy darajadagi yondashuvlarning o'ziga xosligi aholining daromad darajasi va ehtiyojlari bilan bog'liq.

Ilmiy davralarda kambag'allik darajasini aniqlashga oid me'yoriy yondashuvni belgilashda "oqilona minimumga mos farovonlik" tushunchasidan ham foydalaniladi. Bundan tashqari, kambag'allik darajasini aniqlashda "kambag'allik chegarasi" va "kambag'allik hajmi" degan tushunchalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. "Kambag'allik chegarasi" o'z o'rinda "oqilona minimum farovonlik" tushunchasining amaldagi ifodasi orqali shakllantiriladi. Jami aholi ulushida mana shu chegaradan past aholining ulushi esa "kambag'allik hajmi"ni ifodalaydi.

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, "oqilona minimum farovonlik" tushunchasi milliy davlatlar kesimida turlicha ifodalanadi. Qolaversa, oqilona minimum farovonlik chegarasini chizish uchun aholining asosiy (ba'zi manbalarda birlamchi) ehtiyojlarini va uning statistik qiymatini aniqlash zarurati yuzaga keladi.

Dunyo bo'ylab yashash narxidagi farqlar oshganiga qarab vaqti-vaqti bilan yangilanib turadigan mutlaq kambag'allikning xalqaro darajasi hisoblab chiqiladi. Ko'rsatkich barcha mamlakatlardagi kambag'allik darajasini yagona standart asosida baholaydi. Jahon banki tomonidan 1990-yilda ishlab chiqilgan xalqaro mutlaq kambag'allik chegarasini hisoblash metodologiyasi dunyoning eng kambag'al mamlakatlardagi milliy kambag'allik darajasi va ularning valyuta kurslari va xarid qobiliyati pariteti — XQP yordamida yagona valyutaga konvertatsiya qilishdan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

XQP asosidagi valyuta kurslari bir xil miqdordagi tovarlar va xizmatlar narxi barcha mamlakatlarda ekvivalent bo'lishi uchun

hisoblanadi. Eng kambag'al mamlakatlarning olitasida yagona valyutaga qayta hisoblash ularning barchasi uchun kambag'allik darajasi kuniga bir kishi uchun taxminan 1 AQSH dollarini tashkil etishini ko'rsatdi. U esa kambag'allikning birinchi xalqaro ko'rsatkichi uchun asos sifatida qabul qilindi.

2005-yilda eng kambag'al 15 mamlakat asosida xuddi shunday qayta hisoblash kambag'allik darajasi kuniga bir kishi uchun 1,25 AQSH dollarini tashkil etishini ko'rsatdi. 2015-yil oktabr oyidan boshlab xalqaro kambag'allik chegarasi 1,90 AQSH dollariga ko'tarildi. 2022-yil sentabr oyidan bu ko'rsatkich 2,15 AQSH dollariga yetdi. Rivojlanishning o'ziga xosligi va bosqichlarini hisobga olgan holda "past o'rta daromadli mamlakatlar" uchun kambag'allik chegarasi kuniga 3,2 AQSH dollari va "o'rta daromadli mamlakatlar" uchun 5,5 AQSH dollari miqdorida belgilanadi. Ushbu yondashuvni amaliyotda qo'llash uchun ilmiy asoslangan minimal iste'mol savati hukumat tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Iste'mol savati normativ va normativ-statistik metodlar orqali shakllantiriladi va ilmiy asoslanadi. Normativ metodning o'ziga xosligi shundaki, insonning fiziologik xususiyatlaridan kelib chiqib, zarur mahsulotlar me'yorlari ishlab chiqiladi. Amaliyotda bu usulni qo'llashning murakkabligi shundaki, me'yoriy sifatida belgilangan tovar va xizmatlarning narxini doimiy kuzatib turishga va ular asosida iste'mol savatlashi qiymatini doimiy o'zgartirib borishga to'g'ri keladi.

Hayotiy ehtiyojlar qayg'usi

Kambag'allikka qarshi kurashishda muammoni yechish kompleks yondashuv talab qiladi. Bunda faqat moddiy yordam emas, balki ta'lim, mehnat bozorida imkoniyatlar yaratish, shaffof institutlarni rivojlantirish, fuqarolik jamiyati ishtirokini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston tajribasi ko'rsatadiki, milliy va mahalliy mexanizmlar xalqaro ilg'or tajribalar bilan uyg'unlashtirilsa, aholi turmush darajasini oshirish va kambag'allikni keskin qisqartirish mumkin.

Prezidentimizning 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida: "Bir oilada mashina ham, chorva ham bo'lishi mumkin, lekin bir kishi og'ir kasal bo'lsa, oila daromadining kamida 70 foizi uni davolashga ketadi. Xo'sh, bunday oilani o'ziga to'q deyish mumkinmi? Prezident sifatida meni odamlarimizning ovqatlanishi, davolanishi, bolalarini o'qitishi, kiyintirishi kabi hayotiy ehtiyojlari nima bo'lyapti degan savol har kuni qiynaydi", deya ta'kidlagan edi.

Albatta, har kim bu dunyoga baxtli, saodatli yashash uchun keladi. Farovon hayot kechirasam, turmushda kam-ko'p bo'lmasa deb orzu qiladi, intiladi. Ammo inson oddiy minimal yashash sharoitidagi baxt tugul, xotirjamlikka ham erisha olmaydi. Qanday qilib bo'lmasin, qonimni to'yg'azsam, egnimni butlasam, betob onam, bemor otam, xasta bolam yoki kasal xotinimga nima qilib dori olam degan o'y-tasvishlar girdobida turmush kechiradiganlarni hayotdan rozi insonlar deb bo'lmaydi.

Ana shu og'riqli masalaning gazak olishi bir necha omillarga bog'liq. Ular orasida eng asosiy muammoning yashirib kelingani. Yurtimizda kambag'allik ko'p yillar davomida yopiq mavzu bo'lib qoldi. Bu kategoriyaning o'rmi dardimizni azbaroyi xaspo'shlash uchun "kam ta'minlanganlik", "ehtiyotimandlik" degan tushunchalardan foydalanildi. Oqibatda kambag'allik iskanjasi kamayib qolmadi va ostonamizdan butunlay yo'q bo'lib ketmadi.

Shukrki, xalq bilan muloqotning bugundagi samarali tizimi haqiqiy ahvolni ko'zgudagiday namoyon etdi. Odamlarning aslida qanday hayot kechirayotgani, ularning eng og'riqli nuqtalari oshkor bo'lib qoldi.

Prezidentimiz mustaqilligimizning o'ttiz to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda nuqtida ta'kidlaganidek, yurtimizda kambag'allik darajasini 6,8 foizga tushirishga erishildi. Xalqaro tashkilotlar 5-6 yil oldin ushbu raqamni 35 foiz atrofida baholaganini hisobga olsak, qisqa davrda bu borada qanday katta yo'lni bosib o'tganimiz yaqqol ayon bo'ldi.

O'zbekiston so'nggi yillarda kambag'allikni qisqartirishda yangi modelni ishlab chiqib, amaliyotga joriy etdi. Bu, eng avvalo, manzilli ijtimoiy daftarlarni, mahallabax ishlar tizimi, ehtiyojmand aholini daromad manbalari bilan ta'minlash kabi chora-tadbirlarda ko'zga tashlanmoqda. Natijada 7,5 million aholi kambag'allikdan chiqarilib, 2024-yilda kambag'allik darajasi 8,9 foizga tushdi. Joriy yil yakunigacha bu ko'rsatkichni 6 foizga yetkazish rejalashtirilmoqda.

Shu bilan birga, iqtisodiyotning ikki barobar o'sishi, aholi jon boshiga daromadning 3,5 ming dollargacha yetishi ijtimoiy siyosat samaradorligini ko'rsatmoqda. Mazkur natijalar nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki aholi turmush sifati oshishiga xizmat qilmoqda.



2025-yil 15-oktabr, 211-son



Hududlar hayoti

BIR MAVSUMDA

200 MILLION SO'M DAROMAD

Obod manzillar

Bog'bon har kungi odatiga ko'ra erta tongdan bog' oralaydi. Qo'lga qaychi olib, toklarga nazar tashlaydi. O'zicha nimalarnidir chamalab ko'radi. Bu yilgi hosilning cho'g'i baland bo'lganidan yuziga tabassum yuguradi. Ayrim tok barglarini qo'lga olib, e'tibor qaratadi. Kasallik alomati yo'qligiga ishonch hosil qilgach, yana yurishda davom etadi. Shu ketgancha bog' adog'iga qadar toklarni ko'zdan kechirib boradi. Ba'zi joylarda qolib ketgan marjon donasiday uzumlarni uzib oladi-da, bir oz ikkilanib, boshidagi do'ppisini yechib, ichiga soladi. Bu bugun bo'layotgani yo'q. Aslida, har safar qo'lga biror savat olib kelishni maqsad qiladi. Ammo ko'pincha xotirasi pand berib, do'ppisini "savat" qiladi. Bugun ham shu holat. Yana ikki-uch joydagi qalin barglar orasida qolib ketgan mevani uzib oladi.

Do'ppisini ko'ksiga bosib, uzum to'kilib ketmasin deya ohista ortiga qaytadi. Bog'ning boshiga kelib to'xtaydi. Ikki egat tokning hosili hali uzilgani yo'q. Ozrog'ini qo'shni mahalladan buyurtma qilib ketishgan. To'yiga olib ketmoqchi. Qolganini bozorchilarga sotadi. Kenjato'yining to'lov-shartnoma pulini to'lashi kerak. Yetib qolar deya taxmin qiladi. Qo'lidagi uzumni bir chetga qo'yib, egat oxiriga qadar yuradi. Toklar ko'tarilib, yayish qilingani bois, boshni bir oz egib yurish lozim. Har bir bosh uzumga nazar tashlab, 6-7 million so'mni chamalab, ko'ngli xotirjam bo'ladi.

Keyingi ariqdagi hosilga tegib bo'lmaydi. Ayoli nabiralari uchun asrab o'tiribdi. O'g'li Andijonda harbiy shifokor. Yaqinda kelini, nabiralari bilan keladi. Bu yilgi uzumdan yeb, bir maza qilsin... Ayniqsa, nabiralarning quvonchini ko'rgach, charchog'i unut bo'ladi. Ularning bidirlab aytgan savollarga javob berib huzurlanadi. Tokzorga yetaklab kirib, bog'dorchilik sirlari haqida gapirib beradi. Axir bog'bonlik — otameros hunar. Bu avlodlarga o'tishi lozim. Shu sabab ko'proq o'rgatishga harakat qiladi. Katta nabirasi o'g'itlarini xotirasida yaxshi saqlab qolgan. Ba'zi gaplarni



unutilarkan. Har tong tokzorga kirib, novdalarni ko'zdan kechiraman. Xomtok qilinadigan payti shu ishlarni bajaramiz. Vaqtda suv, o'g'it beramiz. Doim nazorat qilib boramiz. Mana, kuzning ham yarmi o'tib qoldi. Yana besh-olti kundan so'ng novdalarni kesa boshlaymiz. Shundan so'ng sovuq kunlar boshlanmay turib ko'mib chiqamiz. Harakatimizga yarasha baraka bo'ladi. Bu yil bog'dan 6 tonnadan ziyod hosil oldik. Xaridorlarning o'zi kelib, sotib olib ketdi. Umumiy daromadimiz 200 million so'mga yaqinlashdi. Bundan tashqari, bog'da bo'rdiqchilik ham qilamiz. Bilsangiz, tok muntazam xomtok qilib boriladi. Har kuni ikki-uch qop barg chiqadi. Uzilgan barglar esa behuda tashlab yuborilmaydi. Shunday payti uch-to'rtta novvosni bog'lab, barg bilan boqamiz. Shundan kam 50-60 million so'm foyda olamiz. Shukur, boshqarlardan kam bo'lmadik. Halol mehnat ortidan uch qizimini uzatdim. Bir o'g'lim tibbiyot oliyog'ini tugatib, harbiy shifokor bo'lib ishlayapti. Kenja o'g'lim hozir to'lov-shartnoma asosida universitetda o'qiyapti, — deydi mirishkor. — Kattagina tomorqadan unumli foydalanmaslikning o'zi noshukrlik. Gohida tog'ni ursa talqon qiladigan yoshlarning nolib yurganini ko'rib achinasan kishi. Keng hovli, yaxshigina daromad manbai bo'lsa. Ota-bobolarimizning ayitishicha, ilgari bu yer qarovsiz yantoqzor bo'lgan. Keksa bog'bon bobolarimiz buni vaqtda anglab, shu yerni makon qilgan. Pastdan oqib o'tadigan daryo suvini tepalikka chiqarib, bog' barpo etgan. Shu sabab bu hudud Uzunmazor deb ataladi. E'tibor qaratsangiz, bugun qishlog'imizda kambag'al oila yo'q. Bu o'z-o'zidan bo'lmagan. Peshona teri evaziga erishilmoqda.

Hudud oqsokollarining ta'kidicha, uzumzorliklarning mehnatkashligi sabab turmushi yaxshilanganini ko'rgan boshqa qishloqlar ahli ham tokzor barpo etishga qo'l uribdi. Natijada bugun butun mahalla aholisi xonadonidagi tomorqadan unumli foydalanib kelmoqda.

— Hozir mahallamizning yetmish foizga yaqin xonadonida bog' bor, — deydi "Rabot" MFY raisi Yoqub Rahmatov. — Har bir xonadon o'rta hisobda 100 million so'mga yaqin mablag' topadi. Keyingi yillarda aholi har bir qarich yerdan foyda olishning uddasidan chiqmoqda. Avval shu yerda imkoniyat bo'lishiga qaramay, ko'pchilik ishlash uchun xorijga ketardi. Bugun tomorqadan chiqmay yaxshi pul topish mumkinligini anglab, mehnat qilyapti. Ro'zg'ori bot oilaoda doim ahillik bo'ladi. Shukrki, mahallamiz tinch. Odamlarning yashash tarzi kundan kunga yaxshilanib borayotgani, hayotdan roziligi yuz-ko'zida, har bir so'zida sezilmoqda.

Bugun uzumzorliklarning xayrli tashabbusi butun mahallaga quloq yozayotir. Natijasi esa faqat farovonlik va obodlikka xizmat qilmoqda.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

15-oktabr — Xalqaro qishloq ayollari kuni

SABOT VA BARDOSHDAN YARALGAN HAQIQATLAR

Boshlanishi 1-betda

Ana shu dasht bag'rida kamol topgan, tabiat bilan yuzma-yuz, hayot bilan bellashib yashaydigan fidoyi insonlar bor. Shulardan biri Nurobod tumanida yashaydigan cho'pon ayol, mehnatkash va fidoyi inson Ra'no Xo'shiyevadir. Cho'pon opa bilan subhat qurish maqsadida tumanning chekka hududlaridan biriga yo'l oldik. Uzoq yo'l, dashtning bepoyon kengligi orolab ketarkanmiz, bu yerda yashaydiganlarga oson emasligini yana bir bor his qildik. Har qadamda tabiatning qattiqqo'l qonunlari, har qarashda hayot uchun kurash namoyon. Bu yerda yashash nafaqat jasorat, balki iroda va bag'rikenglik talab qiladi.

Manzilga yetib kelganimizda cho'pon opamiz tandirida non yopayotgan ekan. Bizni samimiyat ila qarshi oldi. Tabassum bilan issiq non uzatdi. Atrofni nonning yoqimli isi tutdi. Opamiz esa sal narida qaynayotgan qumg'ondan epcchilik ila choy damladi. Qadimgi qora qumg'onga qarab, qiziqishimizni payqagan opamiz tabassum bilan so'z boshladi: "Buni bizda 'choydish' deydi. Unda qaynagan choydan bir ichib ko'ring, ta'mi umuman boshqacha. Choydisha suv doim qaynoq turadi. Buni tabiiy termos desa ham bo'ladi. Uning sirini yantoq va qo'y qiyida. Ikkinisi aralashtirib o'choqqa qalasangiz, bir necha soatgacha cho'g'i o'chmaydi".

Rostdan ham qumg'on choyi o'zgacha ekan. Yo'l bo'yi sezilgan charchoqni tezda bosdi.

Otarni aylanib, qo'y va qo'zichoqlar juda yaxshi parvarish qilinayotganini sezdik.

— Har bir qo'yga alohida mehr bilan qarayman. Yoshligimdan qo'zichoqlarni juda yaxshi ko'raman. Otam ham cho'pon edi. Bolaligimda otarimizda har bir tug'ilgan qo'ziga o'zimcha ism qo'yardim. Ular men uchun shunchalik qadrli ediki, hatto bir kuni bir qo'zini qorako'l terichilarga bermayman deb xarxasha qilganman. Otamning bosqlik bilan tushuntirishi sabab qo'zini terichilarga berganman. Endi barchasi o'zgardi. Yangi tug'ilgan qo'zichoqlar terichilarga berilmaydi. Aksincha, ularni o'stirishga qoldiramiz. Bu esa ham iqtisodiy, ham ma'naviy jihatdan to'g'ri yo'l. Qo'ylar tabiiy yo'l bilan ko'payib, otarimiz yil sayin kengaymoqda, — deydi opa.

Atrofda yem-xashak va yantoq g'aramlari piramida shaklida taxlangan. Ayni paytda yantoqning tikani qattiq bo'lsa-da, qishda ochiq maydonda qor-yomg'irda turib yumshaydi. Shu sabab qo'ylar uni bemalol yeydi.

— Hozir qo'poning g'ami yem-xashak yig'ish, qishga tayyorlanishda. Qancha ko'p



zaxira qilsak, qo'ylarimiz qishdan shuncha qiynalmay chiqadi, — deydi opa.

— Mening ham, xo'jayimning ham ajdodlarimiz cho'pon bo'lgan. Dashtning o'ziga xos hikmati, jonli hayoti bor. Sizlarga sukunatdek tuyuladigan bu kenglik men uchun tirik olam. Qo'y-qo'zilar azaliy sirdoshlarim. Bu yerda qo'y boqaman, ovqat tayyorlayman, kuni bilan harakatlaman, zerikishga umuman vaqt yo'q, — deb samimiy so'zlaydi cho'pon opamiz.

Ba'zi ilmiy manbalarda qayd etilganidek, hayvon parvarishi insonning salbiy aurasini va ruhiy zo'riqlashini kamaytiradi, qalbiga osoyishtalik baxsh etadi, ruhiy sokinlik beradi. Shuningdek, inson o'zi sevgan ish bilan mashg'ul bo'lsa, hayotdagi turli muammo va stresslardan tezroq xalos bo'ladi. Xususan, nafaqa yoshida bo'lsa-da, opaning shijoatli, tetik yurishi ham sevimli mashg'uloti — cho'ponlik bilan bog'liq ekaniga shubha yo'q.

Ko'pchilik mendan "Cho'lda xazina topganmisiz? Ayol kishiga cho'ponlik qiyinmasmi?" deb so'raydi. Yo'q, qiynalmayman. Chunki bu yerda tabiatning o'zi menga hamroh. Hayvonlar, dov-daraxtlar — barchasi men bilan. Bularning o'zi xazina emasmi?! Odamlar orasida, atrofda yuzlab insonlar bo'la turib, qalban yolg'iz qolishdan ko'proq qo'rqaman. Shuncha yil cho'ponlik qilib, olis dashtda bo'lsam-da, qo'y-qo'zilaridan ortib, farzandlarimning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullandim. To'g'ri, cho'pon bo'lib balki ularga dunyo tortiq qilolmadim, lekin to'g'ri tarbiya berdim. Endi o'zlarini dunyoni topdi. Cho'lda yashashimdan, cho'pon ekanimdan

hecham afsuslanmayman. Aksincha, faxrlanaman. Bir ayol nimani orzu qilsa, shularga erishdim deb o'ylayman. Hozir farzandlarim yonimga kirgan, ro'zg'or tashvishini olgan. "Ona, endi dam oling, sanatoriylarga boring", deydi. Lekin hech bekor o'tira olmayman, — deydi Ra'no opa.

Opaning samimiy so'zlarida iftixor bilan tavozening uyg'unligi bor. Uning sabotli hayoti cho'l bag'rida o'tdi. Ana shu mashaaqatlar ichra doim ertangi kunga ishonch so'nmadi. Mehnat qilib, oilasiga sadoqat va muhabbat bilan yashadi. Bugun bularning barchasi qahramonimizning qiyofasida, so'zlarida namoyon bo'ladi.

Biz cho'ponlarda bolani qo'y-qo'zilar bilan do'st tutintiradigan odat bor. Masalan, bola hali og'zida tishi chiqmasidan uni suruvdagi eng baquvvat, eng chiroyli qo'zichoqning ustiga mindirib olamiz. Xalqimiz "Shunday qilsak bolaning tishi chiroyli, sog'lom chiqadi. Rizqi ko'p bo'lib, barakali hayot kechiradi" deb ishongan. Bola esini tanigandan boshlab unga qo'radagi o'ziga yoqqan qo'yni ko'rsatib, "Bu seniki", deymiz. Shundan boshlab bola o'sha qo'yni o'zini deb bilib, unga mehr qo'yadi. O'zi qaraydi. Ana shunda bola chorvaga, mehnatga beg'araz muhabbat bilan ulg'ayadi.

Cho'pon uyining atrofida tarvaqaylab o'sgan isiriqlar e'tiborimizni tortdi. "Qo'ylarimizning go'shti nima uchun shirin bo'lishining sirini bilasizmi?" deya subhatimizga qo'shiladi Ra'no opaning turmush o'rtog'i O'rol aka. "Qo'ylar kuniga shu isiriqdan va boshqa dorivor o'tlardan yeydi. Qo'ldan yem berilmaydi. Shuning uchun qo'ylarimiz go'shti nafaqat shirin, balki shifobaxsh ham bo'ladi".

Shu tarzda Ra'no opa bilan qiziqarli subhatimiz ancha vaqt davom etdi. Bu mehnatkash ayolning samimiy so'zlarida chuqur hayot tajribasi, fe'l-atvorida shijoat, dilida esa hayot haqiqatlari, sabot va bardoshdan shakllangan baxt mujassam.

Ha, ba'zan inson baxtni uzoqdan axtaradi. Yon-atrofidagi oddiy go'zalliklarni anglay olmaydi. Aslida, baxt qayerda yashashingda yoki qanday kasbda ishlashingda emas. Baxt insonning qalbidagi shukronalikda, hayotdan rozi bo'lishda! Yaqinlari, sevimli insoni borligida. O'z kasbiga mehu e'tiborida. Ra'no Xo'shiyeva timsolida biz aynan ana shunday hayot falsafasini ko'rdik. U baxtni mehnatda, halollikda, halovatta deb biladi.

Shuhrat NORMURODOV,
jurnalist

ISHSIZLIK VA KAMBAG'ALLIKDAN XOLI MAHALLA

Bandlik

Bag'dod tumanidagi "Chekxitoy" mahalla fuqarolar yig'inidagi hokim yordamchisi Nurmatjon G'oziyev mamlakatimiz mustaqilligining qutlug' 34 yillik shodiyonasi kunlarida "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.



Chekxitoy tumandagi eng chekka mahallalar sirasiga kiradi. Bir tomoni Markaziy Farg'ona yerlariga tashagan mahalla yillar davomida e'tibordan chetda qolgandi. Toza ichimlik suv, yo'l, elektr ta'minoti kabi infratuzilma tarmoqlari hamingqadar, ishlab chiqarish haqida o'ylash ham xato bo'lardi. Shu bois, aksariyat yoshlar ishsizlik sabab xorijga ketardi.

Yangi O'zbekistonda ortga qaytmus tas olgan islohotlar ana shu chekka mahallada ham o'z aksini topdi. Xususan, mahallada hokim yordamchisi lavozimini joriy etilgach, hayotbaxsh tashabbus quloq yo'yd. Yangi tizim aholini bir maqsad yo'lida birlashtirdi. Muammolari o'rganish, hal qilish, qo'llab-quvvatlashga keng yo'l ochildi. Mahallada yangi transformator, simyo'och va tungi yoritish chiroqlari o'rnatildi. Shuningdek, bir juft quduq qazilrib, 5,5 kilometrdan ziyodroq toza ichimlik suv tarmog'i tورتildi. "Tashabbusli budjet" loyihasi va boshqa dasturlar doirasida

ichki yo'lning 12 kilometri asfaltlandi, shag'al yotqizildi. Fuqarolar yig'ini uchun zamonaviy bino qurildi.

Xomashyodan qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish borasidagi loyiha chekka qishloqqa yangi hayot nafasini olib kirdi. Shu tariqa mahalla ishsizlik, kambag'allikdan xoli hududga aylandi. Joriy yilning shu kuniga qadar ishsiz, ijtimoiy himoyaga muhtoj 130 oila kambag'allikdan chiqarildi. Tadbirkorlik, tomorqachilik, chorvachilik, savdo va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini qamrab

olgan mikroloyiha, tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun 700 million so'mdan ortiq imtiyozli kredit berildi. Kambag'al, ijtimoiy reyestrda kirgan oilalarni kambag'allikdan chiqarish maqsadida ular salohiyatli tadbirkorlarga birlashtirildi. Shuningdek, kasb-hunarga o'qitilib, ekin uchun yer berilmog'ida. Natijada tomorqa va ekin maydonlaridan bir emas, 2-3-marta hosil olish, bug'doydan bir shagan maydonlarda takroriy ekin ekish, hosilni saqlash va sotish borasida tajribalar ommalashdi. Keyingi uch yilda migratsiyadan qaytgan, ijtimoiy himoya daftarlariga kiritilgan 165 yosh va xotin-qizga 21 gektar ekin maydoni ajratildi.

Mahallamiz sanoatlashib bormoqda. Bundan uch yil oldin bor-yo'g'i 2-3 tadbirkor bor edi. Bugun ularning safi o'tizdan oshdi, — deydi hokim yordamchisi Nurmatjon G'oziyev. — Birinchi chorakning o'zida umumiy qiymati 500 ming dollardan ortiq mochalva va supurgi eksport qilindi. Yil yakuniga qadar bu miqdor bir million dollarga yetadi. Bu o'z-o'zidan amalga oshayotgani yo'q, albatta. Shu kunga qadar "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida 30 ta mikroloyiha va "Biznesga birinchi qadam" dasturlari asosida 100 million so'mdan ortiq imtiyozli kredit ajratildi. Natijada 200 dan ziyod yangi ish o'rni yaratildi. Shu kabi ishlar mahallamizni ishsizlik, kambag'allikdan xoli hududga aylantirdi. O'tgan yilning o'zida kambag'al oila reyestriga kirgan 51 ta oila tikuv jihozlari, 20 ta oila kooperatsiya asosida 3 tadan asali oilasi bilan ta'minlandi. Ayni kunda 20 ta oila tomorqasida subsidiya asosida so'rtoklar

qurildi. Bu kelgusi mavsumda aholini barqaror daromad bilan ta'minlaydi.

"Bir mahalla — bir mahsulot" tamoyili joriy qilib, mochalva va supurgi yetishtirish, qayta ishlash yo'nalishida 4 ta kooperatsiya tashkil etildi. Ular tashabbusi bilan aholi va fermerlarga sarxil urug' yetkazib berish, tayyor xomashyoni dalaning o'zida sotib olish tizimi yo'lga qo'yilgan.

Dilsevar Ibrohimova bu yerga kelin bo'lib tushgach, vaqtincha ishsiz qoldi. Tikuvchilik malakasiga ega bo'lgan ayol hokim yordamchisi tavsiyasi bilan o'z xonadonida mochalvani qayta ishlashni yo'lga qo'ydi. Avvaliga subsidiya asosida 10 ta tikuv mashinasi, 50 million so'm imtiyozli kredit berildi.

Oddiy mochalvadan 16 xildan ortiq tabiiy mahsulot tayyorlaymiz, — deydi tadbirkor. — Ishlab chiqarish seximida 30 ta doimiy ish o'rni yaratilgan. Bundan tashqari, 30 ta xonadon bilan kasanachilik asosida ishlayapmiz. Mahsulotimizga ichki va tashqi bozorda talab yuqori. Shuni hisobga olib, 120 nafar dehqonga xomashyo yetishtirishda amaliy yordam beramiz. Bu



yil mahsulotlarimizni onlayn platformaga chiqarib, savdo aloqalarini yo'lga qo'ydik. Rossiyada savdo uyi ochdik. Maqsadimiz — bu yo'nalishda klaster asosida ishlash. Hozir yillik aylanma mablag'imiz 1,5 milliard so'mdan oshdi.

Muqaddasxon Jalilova ishsizlik bois, "Ayollar dasturi"ga kiritilgan oila bekalaridan. Unga imtiyoz asosida 15 sotix yer ijaraga berildi. Erta ko'klamda yerga mochalva urug'i ekdi. U bo'y cho'zguncha, sabzavot ekib, yaxshigina daromad oldi.

Bir dona mochalvaning ulgurji bahosi 35-40 million so'm. Bu bir mavsumning o'zida 35-40 million so'mdan ortiq daromad olish imkonini bermog'ida, — deydi oila bekasi. — Bundan tashqari, kasanachilik asosida mahsulot tayyorlab haq olamiz. Bizga ham yangi tikuv mashinasi berishdi. Endi kelinlarim bilan o'zimiz yetishtirgan xomashyoni qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlash chiqarishni yo'lga qo'ydik. Bu oilamizga qu'dshimcha daromad olib kirdi.

Ayni kunda mahalla hududidan o'tgan xalqaro ahamiyatga ega avtomobil yo'li bo'yida 90 ta zamonaviy xizmat ko'rsatish va ishlash chiqarish obyekti qurilmog'ida. Bu bir vaqtning o'zida 300 ga yaqin qo'shimcha ish o'rni yaratadi. Xizmat ko'rsatish ko'lamlari kengaytirib, aholi farovonligiga xizmat qiladi.

Sirasini aytganda, halol mehnat bilan tilgilgan daromad oilalar farovonligini ta'minlayapti. Zamonaviy uy-joylar, qulay infratuzilma, savdo va xizmat ko'rsatish tarmoqlari, ko'chalarni to'ldirib yurgan avtomashinalar karvoni ana shu mehnat va izlanishlar mahsululi.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



U osmondan ko'z uzmay, qotib turar ekan, shu holatida qadim xarobalar markazidagi muhtasham haykalga o'xshardi. Ehtimol, u hozir olis bolalik yillarini qo'ysayotgandir. Mana, besh-olti yoshlardagi bola bobosi bilan guvaladan ko'tarilgan, zax tufayli bir-biriga qapishib ketgan uylardan birining yassi tomida turib, fusunkor kechening sehriga berilganча hadsiz kengliklarga nazar tashlab turibdi. Yulduzlar lojuvard gumbazni bola ko'nglidagi sevinchday to'ldirgan. Yerga suzib uzatilayotgan bir kosa sutdek oppoq oymomo esa, qo'l cho'zsa yetgudek yaqin masofada turgandek tuyuladi. Bu ajib manzaraga mahliyo bo'lgan bola bobosiga hadeb yalinadi:

— Bobo, oygacha narvon yasab bering. Hozir yasab bering, bobo, bobo, deyman!
Bobo bolani chalg'itishga ozgina urinadi-yu, nabirasining xarxashasi o'zigayam xush kelgandek indamay qo'yadi:
— Bobo, narvoon!..
Adib tasavvurida gavdalangan bola siymosiga chetdan tikilib turar ekan, uning qaravotganini bobo va nabira sezmayotganini payqadi..
O'sha soniyadagi huzurbaxsh hayajoni va titrog'ini butun umr his etib yurdi. Bir siqim to'la momaqayymoqdek tiniq, hamisha sehrli va jozibali oy uning sevgi ramziga o'ylaganidan ancha oldin aylanganini angladi. Oradan bir necha yillar o'tib, o'zining ilk she'riy satrlarini bitganda, nenidir qoralaganda ular ostiga ana shu beqiyos muhabbatga payrov bo'lgan taqdir so'zi bilan imzo chekdi: **“Oybek”**.

Navoiy nomidagi ta'lim va tarbiya texnikumida tahsil olgan Oybek do'sti Homil Yoqubovning 50 yoshga to'lishi munosabati bilan o'sha yillarni xotirlab, bunday yozadi: *“Ertalab qora nonu olma choy tegar, qopda turgan shakarni ‘iqitsodi!’ deb ziqna direktorimiz yegizmasdi. Darsdan so'ng peshinda ovqatga shoshardik. Kurmakli oqshoq gurunchdan qilingan, ammo sergo'sht palovni suyunib oshardik. Kecharun esa hamisha moshxo'rda. Murabbiylar mosh foyda, unda fosfor ko'p, deb maqtardilar”*.
Naim Karimov **“Oybek”** risolasida Homil Yoqubov va Mirkarim Osim xotiralarini qoralarkan, texnikumdagi yoshi kichikroq bolalar bir kosa moshxo'rda bilan bir burda nonga qanoat qilar, ammo yoshi kattaroq talabalar qo'shimcha ovqat so'rashga majbur bo'lishini qayd etadi. Novcha va chayir yigitcha — Muso esa hammadan oldin ovqatni ichib bo'lib, qoshiqni kosaga **“taq”** etib urar va: **“Taq etdi, shaq etdi — bir kosa ovqat qaq ketdi”**, deb hazillashib qo'yar ekan.
“Ovqatdan keyin, — deb davom ettiradi Oybek xotiralarini, — yotoqda saboqlarimiz mashg'ulotiga kirishardik. Matematika, fizikadagi masalalarni hal etib, so'ng adabiyotda muzokaraga, she'r o'qishga



“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05



“NAFIS CHAYQALADI BIR TUP NA'MATAK...”

ADIB FAOLIYATIGA CHIZGILAR

o'tardik. Uzoq qoq yarim kechalarga qadar o'tirardik. Azonda muallim, murabbiylarimiz uyg'otar, yana sinfga, darsga shoshamiz!”.



do'ppi kiyib yuradigan, ko'rinishidan dehqonlarga o'xshagan, qora ko'zlari kichik, o'tkir, sho'xchan, sinovchan boquvchi, goho esa xuddi o'zi bilan band bo'lgandek beparvo ko'ringan bo' kishi” o'sha paytlardayoq **“O'tkan kunlar”** romanining ijodkori sifatida mashhur edi. O'zbek adabiyotidagi birinchi ulkan va to'liq roman muallifi bilan Oybek o'rtaida tez orada samimiy munosabatlar o'rnatildi. Leningraddan qaytib kelgan Oybek uning Samarqand darvozadagi bog'-hovlisiga tez-tez borib turdi, gazeta va jurnal redaksiyalarida, sobiq Iqon ko'chasidagi Toshkent shahar proletar yozuvchilari uyushmasining binosida va boshqa joylarda uni uchratadigan bo'ldi.
Abdulla Qodiriy ham, o'z navbatida, Oybekni halol va fidoyi ijodkor sifatida hurmat qilardi. Oybekning rafiqasi Zarifaning esa kimyo fanlari bo'yicha mutaxassis bo'lgani unda, ayniqsa, hurmat uyg'otar edi. Shuningdek, u yoshi do'stining ma'rifatparvar qaynotasi Saidnosir Mirjalilov bilan ham iliq munosabatda bo'lgani sababli o'zini Oybekka har tomonlama yaqin his etardi.
Oybek zabardast vujudini to'ldirgan kuch o'ziga yangi maydon artarayotganini seza boshlaydi. Qodiriy singari aqliy va jismoniy mehnatga o'ch shoir o'zidagi ana shu tashnalikni qondirmoqchi, mehnatning har ikki turi bilan baravar shug'ullanish orqasida aqliy mehnatning yangi uqlarini kashf etish ishtiyogida edi.

Keyinchalik Oybekning uyiga borgan do'st-yorlari uning tun bo'y ijdod bilan shug'ullanishidan xabar topib, bu holni qandaydir favqulodda voqea sifatida hayratlanib so'zlab yuradi. Naim Karimovning yozishicha, Oybekning texnikumdagi o'rtog'i Saidvali Sharafiddinov ana shunday bedor tulanidan birini eslab, bunday deydi: *“Bir kuni erta bilan soat 10-11 lar orasida Oybekning uyiga kelsam, xonasida hech kim ko'rinmadi. Chaqirsam ovoz bermadi. Odatga ko'ra, Oybek ijod qilib o'tiradigan xonaning eshigini ochdim. Hammayoq tutun. Odam bor-yo'qligini bilib bo'lmaydi. Ammo shu payt eshik ochilib, xonaga o'ftob nurlari kirganini ko'rgan yozuvchi o'rnidan turdi-da, men bilan so'rashib, “Iya, tong otdimi?!” deb so'radi. Ma'lum bo'lishicha, u tun bo'y yozib, hatto tong oiganini ham bilmagan ekan”*.

Zarifa Saidnosirova Oybekning uch-to'rt, ba'zan olti-yetti sutkalab o'z xonasidan chiqmay, hatto oilasi bilan baravar ovqat ham yemay ijod qilganini aytdi.
Aqliy mehnat qobiliyatini susaytirmagan holda ana shunday uzluksiz ijod qilish uchun

kishida uch sifat — iste'dod, mehnat intizomi va kuch-quvvat bo'lishi kerak. Ana shu uchovi ham Oybekning qonida bor edi.
O'tgan asrning 30-yillari o'rtalarida nazm, nasr, adabiyotshunoslik va tanqidchilik bilan shug'ullanayotgan Oybek milliy madaniyatimizning yana bir muhim sohasiga qo'l urdi. Bu madaniy inqilobning eng muhim jabhalaridan biri — badiiy tarjimaçilik edi. Jahon badiiy madaniyatining oltin fondini tashkil etadigan asarlarni o'zbek tiliga o'girish xalqimiz madaniyatini yuksaltirishi, uni jahondagi taraqqiy etgan xalqlar darajasiga ko'tarishiga emas, balki yangi o'zbek adabiyotini rivojlantirish, uni jahon adabiyoti klassikalarining badiiy tajribalari bilan boyitishga ham xizmat qilar edi. Shuning uchun ham bu qutlug' ishga o'zbek yozuvchilarining aksari katta ishtiyog bilan kirishgan.
Oybek tarjimaga qo'l urishdan oldin, hali texnikumda tahsil olayotgan payti auditoriyalarda zamonaviy kiyingan, o'rta bo'yli, ko'rkam qiz paydo bo'ldi. U aslida yangi shaharning Pushkin ko'chasida joylashgan maktabning 6-sinfida o'qir va bilimni boyitish niyatida Navoiy texnikumining birinchi, ikkinchi va uchinchi asos sinflarida o'tilayotgan o'zbek tili va adabiyoti hamda tarix darslarida qatnashar edi. Oradan bir yil o'tgach, ma'muriyat unga o'qishini texnikumga butunlay o'tkazishni taklif etdi. Qizning ota-onasi ham bu taklifni mamuniyat bilan qabul qildi. Turkistonda, badavlat oilada voyaga yetgan va tengdoshlariga nisbatan ancha keng ma'lumotga ega bu qiz rus tilini yaxshi bilar, adabiyot, musiqa va tasviriy san'atdan xabardor, shuning uchun ham davrining eng ilg'or va kamyob yoshlaridan biri edi.
Oybek bir ko'rishdayoq qizni qattiq seviz qoldi. Uni ko'rganda ko'zlari quvonardi. Qizning shirin ovoziyo o'tli ko'zlari, nafis odim tashlashiyu yarim ovro'pacha kiyinishi Oybekning xayolini olib qocha boshladi — yigit qalbidagi chin muhabbat tuyg'usi gul ochdi: Zarifa.

Kimyogar so'z

Yo'l. Insoniyatning eng qadimiy hamrohi. Biri kengayib, ufqqaqcha yetadi, biri torayib, qorong'ilik qa'rida yo'qola boradi. Yo'llar cheksiz. Ba'zisi qeng, ba'zisi tor, biri ravon, biri notekis, quyoshli, yomg'irli, gulli-tikanli — hammasi yo'lining tabiatidan. Bu yo'larning barchasini ta'riflashga, izohlashga odamning umri yetmaydi. Ammo bir o'zgarmas haqiqat bor: yo'lga tushmasdan, qadam bosmasdan

turib, hech bir orzuga, hech bir tilakka yetib bo'lmaydi. U tabiatimizga o'xshaydi, ruhияtimizni aks ettiradi. Oxir-oqibat yo'l tashqaridan emas, avvalo, yurakdan o'tadi.
Birinchi bo'lish mana shu yo'llardan eng og'irini tanlashdir. Chunki u qorong'ilikni yoritgan chiroqdek boshqalar uchun yo'l ko'rsatadi. Birinchi qadamni qo'rgan odam ortidan avlodlar ergashadi, uning izi kelajakni belgilaydi. Shu sabab mas'uliyati og'ir bo'ldi.
Zarifa Saidnosirova o'zbek tarixida ana shunday siymo sifatida yashab qoldi. Ilm yo'lida o'tib, birinchi ayol kimyogar sifatida darslik yozdi, shogirdlar tayyorladi. Uning tanlovi oddiy kasb tanlovi emasdi, butun jamiyat uchun yangi ufq ochgan jasorat maktabi edi.
Olma o'zbek tilida birinchi bo'lib anorganik kimyodan o'quv qo'llanma yozdi. Shuningdek, rus tilidagi o'quv qo'llanma va darsliklarni o'zbek tiliga tarjima qildi. Kimyo fani bo'yicha ruscha-o'zbekcha izohli lug'at yaratdi. 1961-yili oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'zbek tilida birinchi bo'lib anorganik kimyodan darslik tuzdi.
Bu haqda o'zi bunday xotirlaydi: **“Men 1930-yildan boshlab o'rta maktablar uchun kimyodan darslik yozishni o'ylay boshladim. Buning uchun eng avval kimyo atamalarini ishlab chiqish kerak edi. Shuning uchun men atamalar bilan shug'ullana boshladim va ayni zamonda darslik yozishga ham hozirlik ko'rdim. Rabfaklar va texnikumlar uchun yozdimgi “Anorganik kimyo” darsligi bosilib chiqdi. Hajmi 18 bosma toboq bo'lib, lotin harfi ila chop etilgan. Bu kimyo fanidan o'zbek tilida chop etilgan birinchi darslik edi. Shu tufayli menga dotsentlik unvonini berdilar. Kitobga shoir Elbek muharrir bo'ldi. U kamtarin, xushmuomala odam edi. Men 1931-1932-yillarda bir nashriyotga kimyo bo'yicha atamalar kitobini topshirgan edim. Darslikdan so'ng u ham bosilib chiqdi. O'sha yillarda o'rta maktablarning qariyb barcha sinflarida Verxovskiyning kimyo fani bo'yicha chiqargan kitoblari darslik sifatida o'qitilar edi. Men shu darsliklarning ko'pini o'zbek tiliga tarjima qildim”**.
Zarifa Saidnosirova kimyogar-olima bo'lish bilan bir qatorda ulug' adibning umr yo'ldoshi, kotibasi, asosiysi, eng yaqin maslakdoshi ham edi. Yozuvchi ijodi va shaxsiyatiga qarshi yo'naltirilgan turli ig'vo-bo'htonlar Oybekning salomatligiga jiddiy ta'sir qildi. Og'ir xastalikka chalindi, o'ng qo'lida qalam ushlay olmay qoldi. Shundan keyin yaratilgan ko'plab asarlar, ilmiy va badiiy matnlar Zarifaxonimning mashaqqatli mehnati bilan qog'ozga tushdi. U turmush o'rtog'ining fikrini tinglab, so'zma-so'z yozib

borar, shu tariqa Oybekning keyingi ijodiy ishlarini asrab qolishga bevosita hissa qo'shdi.
Olimaning xizmatlari shu bilan cheklanmaydi. U Oybekning boy shaxsiy arxivini tartibga soldi, hujjat va qo'lyozmalarini yig'ib, ilmiy asosda qayta ishlash jarayoniga bosh-qosh bo'ldi. Qariyb o'n yil Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti olimlari bilan birga mazkur arxivda izchil faoliyat yuritdi. Natijada adibning yigirma jildli mukammal asarlar to'plami tayyorlandi.
Bu mehnat nafaqat adabiyotshunoslik, balki butun milliy madaniyatimiz uchun katta voqea bo'ldi. Oybek merosining to'liq va tizimli nashr etilishi adib nomini adabiyot tarixida yanada mustahkamlati. Zarifa Saidnosirova esa bu jarayonda fidoyi hamkor, olim, arxivshunos va maslakdosh sifatida yuksak o'rin egalladi.

1951-yilning 16-aprili Oybekning butun umrini ikki davrga ajratib turadi. Bu sarhadning bir tarafiga tog'ni ursa tolqon etuvchi zabardast adib, ikkinchi tomonida esa XX asrning tibbiy taraqqiyoti tufayli omon qolgan, ammo bir umrga mayib bo'lgan inson... Dastlab uning o'ng qo'li ishlamay qoldi, keyin esa tili... Shu ahvolda u oylar va yillar davomida xastalikka qarshi mardona kurashdi. Nihoyat shifokorlar kuniga yarim soat, bir soat, bora-bora ikki soatdan ishlashga ijozat berdi. U asta, bog'cha bolasi singari so'l qo'li bilan yozishni mashq qildi. Ba'zan rafiqasi, farzandlari uning titrog' labidagi so'zlarni qog'ozga tushirib turdi. Bora-bora adibning o'ng qo'li xiyla ishlaydigan, tiliga kelgan ba'zi so'zlarni tushunsa bo'ladigan darajaga yetdi. U shu taxlit ijod qildi: **“Quyosh qoraymas”** romanini tugatdi, **“Oltin vodiyan shabadalar”** romanini qayta ishladi, **“Ulug' yo'l”** romani, **“Nur qidirib”, “Bolalik”, “Alisherning bolaligi”** qissalari, **“Davrim jarohati”, “Guli va Navoiy”, “Haqo'ylar”** dostonlarini yozdi.
Filologiya fanlari bo'yicha ilmiy va martabasi baland bu adib qancha-qancha ilmiy ishlar va dissertatsiyalar o'qib, taqriz va tavsiyanomalar yozib berdi. O'n yildan ziyod muddat **“O'zbek tili va adabiyoti”** jurnaliga jamoatchilik asosida muharrirlik qildi.

Oybek yigirmanchi asr o'zbek adabiyotining beshigini tebratgan ijodkorlardan biri bo'libgina qolmay, olmosdek o'tkir va serqirra iste'dod sohibi edi. Butun qalbi, vujudi bilan xalq ichida ildiz otgan adib o'zining neprit toshi kabi go'zal iqtidorini to'la-to'kis xalqqa bag'ishladi, uning orzu-armonlari, dard va iztiroblari bilan yashadi. Millatni ma'naviy taraqqiyotning yanada yuksak bosqichiga olib chiqdi.
Oybek qanday sharoitda yashamasin — faqat suv ichib, qattiq non yeydimi, paxtachilik institutida dars beradimi, Yo'ldi yoxud Navoiy yashagan tarixiy davr bilan hamnafas bo'ladimi — qalbidagi hamisha or-nomus olovi, g'ayrat va jasorat o'ti yonib turdi. Ana shu so'nmas gulxan tufayli u adib sifatida ham, shoir sifatida ham, tarjimon va adabiyotshunos olim sifatida ham zamondoshlari va izdoshlaridan ko'proq mehnat qildi. Bu sohalarning har biri uchun o'zidan o'lmas obidalar qoldirdi.

“Talent qanchalik katta, qanchalik qudratli bo'lmasin, har nechuk yuzada bo'lmaydi, konga o'xshash yerning qa'rida bo'ldi. Bu kon — talantni qazib olish uchun, avvalo, katta aql, undan keyin katta bilim, matonat, kuch-g'ayrat, bulaming ustiga dard bo'lishi kerak. Katta talant egasi Oybekda mana shu xislatlarning hammasi mavjud. Oybek mana shu xislatlari bilan xalqimizning ma'naviy xazinasiga katta boylik qo'shdi”, deya e'tirof etgandi Abdulla Qahhor.
Odatda biror iste'dod sohibi tug'ilsa, yulduzga qiyoslashadi. Oybek o'zbek adabiyoti osmonida yo'q bo'lib tug'ildi va shunday yashadi. Qirq yildan ziyod davom etgan ijodi bilan odamlar ruhияtini, qalbini hayotbaxsh ziyosi, kumush yog'dulari bilan yoritdi.
Donolarning aytishicha, buyuklik va ezigulik boshqa-boshqa xilqatlarda yashaydi. Noyob kishilargina bu ikki ulug' fazilatni o'zida mujassam eta oladi. Oybek ana shunday siymolardan biri bo'lganiga bugun hech kim shubha qilmasa kerak.

Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga **“SHARQ” NMAK** mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1046.
34751 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi A2.** Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turok ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Asliddin Abdurazzoqov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 20:50